

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024- yil yanvar-oktabr oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **704 128,5** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,9** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 84,8 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,9 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,8 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 5,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 5,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 1,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 4,2 % ga oshgan), boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish (46,5 %) hamda boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish (27,1 % ga), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (29,3 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar- oktabr oyiga nisbatan 83,8 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori mahsulotlari (2023- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 97,8 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

2. Inflyatsiya darajasi

2024- yilning yanvar-oktyabrda respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **107,7** % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 99,6 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 106,2 % ni, xizmatlar bo'yicha 124,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga 2024- yilning yanvar-oktyabridagi yig'ma ko'rsatkich 0,16 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) pasaydi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oshishi yig'ma INIga 2,04 f.d., xizmatlar – 5,79 f.d. ta'sir etdi.

2024- yilning yanvar-oktyabri uchun bo'limlar kesimidagi INI diapazoni 99,1 % dan (Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar) 137,0 % gacha (Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari) chegarada joylashdi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'ı turlari joriy yil boshidan davr uchun yig'ma INI o'sish sur'atiga yuqori ta'sir ko'rsatgan bo'lim bo'ldi. Sog'liqni saqlash va transport sohalaridagi narx o'zgarishlari ham o'sish sur'atiga yuqoriroq ta'sir ko'rsatdi. Sanab o'tilgan bo'limlarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga jami ta'siri 6,31 f.d.ni tashkil etish.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar naxlari o'rtacha darajasining pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, 2023- yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI 0,37 f.d. pasayishini ta'minlandi. Boshqa bo'limlar ta'siri past darajada bo'ldi.

3. Qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida **185 039,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **109,4** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 44 241,4 mlrd. so'mi yoki 23,9 % yirik korxonalar va tashkilotlar, 89 614,4 mlrd. so'mi yoki 48,4 % kichik korxonalar va mikrofirmalar, 51 183,8 mlrd. so'mi yoki 27,7 % norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **294 087,9** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,5** % ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 8,9 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,7 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 9,1 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,3 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,0 % ulush bilan 29 405,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **54 367,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3 393,7 mln. AQSh dollariga yoki **6,7** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **22 442,6** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,6** % ga ko'paydi. Import **31 924,6** mln. AQSh dollariga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,7** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: sanoat mahsulotlari 8,0 % (3 408,5 mln. AQSh doll.)ga, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar 26,4 % (1 366,4 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 17,3 % (1 709,6 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 47,0 % (1 129,4 mln. AQSh doll.)ga.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 57,6 % (3 267,2 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik

hayvonlar 5,6 % (3 005,7 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 6,0 % (1 195,6 mln. AQSh doll.)ga, ichimliklar va tamaki – 28,0 % (197,9 mln. AQSh doll.)ga hamda to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **651 213,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,1** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 20,2 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 3,4 punkt), savdo xizmatlari 12,3 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 10,8 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 25,2 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), transport xizmatlari 8,5 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,4 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 13,3 % ga (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (139 736,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,8 %ga yetdi), savdo xizmatlari (125 605,4 mlrd. so'm, 112,3 %), transport xizmatlari (111 245,6 mlrd. so'm, 108,5 %) va moliyaviy xizmatlar (110 278,7 mlrd. so'm, 120,2 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2024- yil 1- noyabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **469,4** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 402,2 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (100 695 ta), Toshkent (43 086 ta), Samarqand (42 483 ta), Farg'ona (38 331 ta), Qashqadaryo (30 622 ta), Buxoro (29 867 ta) va Andijon (28 515 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 153 049 ta, sanoat sohasida – 64 488 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 35 822 ta, qurilish sohasida – 31 123 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 29 008 tani tashkil etadi.

2024- yil yanvar-oktabr oyida respublikada 70,3 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 68,0 mingtani tashkil etdi.

2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 297 tani tashkil etdi. Ulardan 4 261 tasi qo'shma korxonalar va 11 036 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.